

## **Biznes-rejaga muvofiq 2020 yilda rivojlanishning asosiy yo‘nalishlari (Bank Kengashi tomonidan 2019 yil 27 noyabrda tasdiqlangan)**

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki respublikaning rivojlangan banklaridan biri sifatida bank xizmatlari va moliya bozorida o‘z mavqeini mustahkamlash uchun mutlaq va nisbiy moliyaviy ko‘rsatkichlarini yetarli darajaga ko‘tarilishini taminlash niyatida.

### **Strategik rivojlanishning maqsadlari:**

- Rentabellikni oshirish va xarajatlarni kamaytirish faoliyatini takomillashtirish orqali daromadni ko‘paytirish;
- bankning kapitallashuv darajasini oshirish, kapitalining yetarliligi, likvidligi va barqarorligini moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini xalqaro moliyaviy prinsiplari talablari doirasida mustahkamlash;
- faoliyatning barcha soxalarida yuridik va jismoniy shaxslarning mijozlar bazasini sifatli va miqdoriy ravishda kengaytirish, yirik omonatchilarda konsentratsiyaning pasayishi;
- Uzoq muddatli resurs bazasini oshirish, yuridik va jismoniy shaxslarning mablag‘larini faol jalb qilish;
- aktivlar sifatini yaxshilash, qisqa muddatli kreditlar berish amaliyotini kengaytirish, muammoli kreditlarning so‘ndirilishi bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, asosiy qarz va foizlar bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorliklarning kelgusida yuzaga kelmasligining oldini olish choralari ko‘rish;
- Kredit berish jarayonini soddalashtirish, qarz oluvchilarning to‘lov qobiliyatini tahlil qilish va baxolashni optimallashtirish (skoring modeli va kredit konveyer amaliyotidan keng foydalanish), kredit portfelini diversifikatsiya qilish;
- Bank tavakkalchiliklarini boshqarish tizimini rivojlantirish, Bank Kengashi huzuridagi xatarlarni nazorat qilish qo‘mitasi ishini kuchaytirish, bank tavakkalchiliklarini boshqarish departamentining mustaqilligini taminlash, rivojlanishning turli ssenariylaridan foydalangan holda stress-test rolini oshirish, kredit byurolari bilan ishlashni optimallashtirish;
- Xalqaro moliya institutlari (Xususiy Sektorni Rivojlantirish bo‘yicha Islom Korporatsiyasi (Saudiya Arabistoni) bilan muzokaralar va tegishli tartiblarni o‘tkazish;
- «Rayffayzen Bank Interneshnl» (Avstriya), «Kommersbank AG» (Germaniya) xorijiy banklari bilan muzokaralar va tegishli tartiblar o‘tkazish;
- kredit liniyasini jalb qilish;
- «Islomiy darcha»ni amalga oshirish doirasida faoliyatni tashkillashtirish va bank xodimlarini islomiy moliyalashtirish bo‘yicha o‘qitish;
- filiallar va bank xizmatlari markazlarining mintaqaviy tarmog‘ini rivojlantirish, yangi filiallarni ochish;

- Xalqaro standartlar asosida korporativ boshqaruv tartibini ishlab chiqish;
- 9-sonli Xalqaro moliyaviy hisobot standartiga muvofiq moliyaviy aktivlarni tasniflash va baholashga qo‘yiladigan yangi talablarni hisobga olgan holda moliyaviy hisobotlarni tayyorlash sifatini yaxshilash;
- ISO 9001: 2015 sifati menejmenti tizimining muvofiq standartlariga rioya qilish;
- Xodimlar bilan ishlash usullarini takomillashtirish, xodimlar va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, «O‘quv markazi» ning samarali ishlashini taminlash;
- bank xodimlari va tarkibiy bo‘linmalari uchun (KPI) asosiy ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish va joriy etish.
- 

<b>“Trastbank” XAB ning 2020 yilgi Biznes rejasini bajarilishi haqidagi ma’lumot</b>				
<b>Biznes rejasining asosiy ko‘rsatkichlari</b>	<b>Reja (mln.so‘m)</b>	<b>Haqiqatda (mln.so‘m)</b>	<b>Farq (mln.so‘m)</b>	<b>Reja bajarilishi (%)</b>
Aktivlar		4 735 185		
Kredit portfeli	2 119 349	2 243 470	124 121	106
Jalb qilingan depozitlar	3 315 204	3 672 209	357 005	111
Daromad	829 937	876 087	46 150	106
Xarajat	529 920	562 336	32 415	106
Foyda	300 017	313 752	13 735	105